

Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazining 2023 yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirilgan ish faoliyati haqida Hisoboti

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universitetiga 1931-yilda asos solingan. Shunda bu oliygo‘h Farg‘ona pedagogika institutining Andijon filiali sifatida tashkil etilib, 1939-yilga qadar kechki pedagogika instituti maqomida faoliyat ko‘rsatgan.

Istiqlol sharofati bilan O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1992-yil 28-fevraldagi farmoniga asosan 15-martdan Andijon davlat pedagogika instituti Andijon davlat universiteti maqomiga ega bo‘ldi.

Universitet Axborot-resurs markazi (*keyingi o‘rinlarda–ARM deyiladi*) faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-sentyabrda tasdiqlangan 552-sonli qarori asosida tartibga solingan. Vazirlar Mahkamasining 552-sonli qarori asosida universitet axborot-resurs markazi faoliyatini tartibga soluvchi NIZOM ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan (2022-yil 2-dekabrda tasdiqlangan). Axborot-resurs markazining faoliyati mazkug Nizomga to‘liq mos keladi. Axborot-resurs markazi xodimlarining lavozim yo‘riqnomasi ishlab chiqilgan va shu asosida ish tashkil etilgan. Axborot-resurs markazining ish rejasi tasdiqlangan bo‘lib shu reja asosida ish olib boriladi.

Hozirgi kunda Axborot-resurs markazida **5 ta** bo‘limdan iborat bo‘lib, ushbu bo‘limlarda jami **45 nafar** xodim faoliyat ko‘rsatmoqda. Shu jumladan, oliy ma’lumotli 4 nafar, o‘rta maxsus xodimlar 41 nafarni tashkil etadi. ARM xodimlarning barchasi mutuxassislik diplomlariga ega. Xodimlarni faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

ARM fondi 2023-yil xolatiga umumiy kitob fondi : 26 300 nomda, 296075 nushani tashkil etadi.

Shundan:

Darslik–1 543 nomda, 48 361 nusha

O‘quv qo‘llanma–3 279 nomda, 69 561 nusha

Ilmiy adabiyotlar–12 871 nomda, 62 238 nusha

Badiiy adabiyotlar –7 119 nomda, 16 344 nusha

Boshqa turdagi adabiyotlar–1 161 nomda, 94 726 nusha

Xorijiy adabiyotlar–327 nomda, 4 845 nusha

Brayl–9 nomda, 51 nusxada

Darslik va o‘quv qo‘llanmalarning elektron nusxasi–26 259 nomda

Audio darsliklar–445 nomda

Badiiy nashrlarning elektron nusxasi–721 nomda

Badiiy nashrlarning audio to‘plamlari–150 nomda

Axborot-resurs markazida kitobxonlarga elektron axborot kutubxona resurslari bilan xizmat ko‘rsatish va masofaviy ta’limda talabalarni o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash maqsadida ARMning <http://G‘G‘kutubxona.adu.uzG‘> _ “Elektron kutubxona” saxifasi tashkil etilgan.

Elektron kutubxona va umumiy elektron kutubxona bazasida jami 28567 nomda elektron resurslar mavjud bo'lib tizimdan foydalanuvchilar soni 17604 nafarni tashkil qiladi. Shuningdek professor-o'qituvchi va talabalar bilan mobil qurilmalari orqali tezkor axborot almashinuv jarayonini ta'minlash uchun telegram tarmog'ida <https://t.me/AduarmBot> interaktiv kutubxonasi xizmat ko'rsatadi. Bundan tashqari markazda yangi tashkil etilgan va avtomatlashtirilgan kutubxona muhitini yaratishga mo'ljallangan <https://ak.adu.uz> platformasiga belgilangan tartib asosida foydalanuvchilarni ro'yhatga olish, markaz fondida mavjud adabiyotlarning elektron katalogini va yig'ma elektron katalogini shakllantirish ishlari belgilangan reja asosida bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

ARM ning xorijiy axborot kutubxona resurslari bilan ishlash bo'limi va universitet ilmiy bo'limi bilan hamkorlikda 2023 yildan boshlab universitet IP manzili orqali to'liq foydalanishga ruxsat etilgan **Springer Nature, Web of Science**, jurnallari shuningdek **Proquest, EBSCOhost, sciencedirect, proquest** kabi jami 18 ta xorijiy ilmiy-ta'limiy to'liq matnli ma'lumotlar bazalaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Ushbu bazalardan shu kungacha 7685 nomdagi elektron resurslar (monografiya, jurnal, dissertatsiya, avtoreferat, maqola va tezislari) yuklab olinib ARMning lokal tarmoqdagi xorijiy elektron resurslar bazasiga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining <https://unilibrary.uz> yagona elektron kutubxona axborot tizimida ham ARM elektron kutubxona bazasi yaratilgan bo'lib hozirgi kungacha 11598 nomdagi o'quv va ilmiy adabiyotlar joylashtirilgan. Joylashtirish ishlari davom etmoqda

Axborot-resurs markazi 2015 yilda maxsus loyiha asosida qurilib, foydalanishga topshirilgan. Bino 1967.4 m² ni tashkil qiladi va 500 ming adabiyot sig'imiga ega. 85 ta o'ringa ega 4 ta elektron o'quv zallari, 250 o'rindan iborat 4 ta an'anaviy shakldagi adabiyotlar bilan xizmat qiluvchi o'quv zallari mavjud. Kitobni uyda foydalanish uchun abonement bo'limi va 200 mingdan ortiq kitoblarni saqlash xonalari mavjud bo'lib, xonalar barcha me'yoriy talablarga javob beradi, hamda o'quv zallarida sovutish vositalari (konditsioner) jihozlari bilan ta'minlangan. Foydalanuvchi professor-o'qituvchi va talabalar uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Axborot- kutubxona xizmati ko'rsatish ishlari.

ARM dan professor-o'qituvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, ishchi xodimlar va axolining barcha qatlamlari foydalanib keladi. ARM ga jami **9361 nafar** foydalanuvchi a'zo bo'lgan, shundan **781 nafari** professor – o'qituvchilar, **448** nafar ishchi xodimlar, **8132 nafari** talabalar.

ARMdan foydalanuvchilar monitoringi tahlil qilinganda quyidagi holat aniqlandi. O'tgan xisobot yilida bir yil davomida ARM ga qatnov **245810**, kitob berilishi **983240** marotabani tashkil qilgan. Axborot-resurs markazida bir kunda o'rtacha **853nafar** kitobxonga sifatli va tezkor xizmat ko'rsatadi. ARM ish faoliyati ertalab 8-00 dan kechki 22-00 ga qadar xizmat ko'rsatadi.

Universitetda imkoniyati cheklangan talabalar uchun Axborot-resurs markazining kirishida mahsus yo'lakcha va xojatxonalar tashkil etilgan. Ular uchun birinchi qavatida o'quv zali tashkil qilingan bo'lib kutubxona xodimi birlashtirilgan. Ko'zi ojiz talabalar uchun brayl alifbosida yozilgan kitoblar va ovoqli audio hamda viloyat ko'zi ojizlar kutubxonasidan olib kelingan brayl alifbosidagi kitoblar mavjud. Ular uchun kompyuterlar va quloqchinlar bilan jihozlangan xona tashkil qilinib, operator birlashtirilgan. Ularga birlashtirilgan operator audio yozuvidagi darslik va o'quv qo'llanmalar hamda badiiy, ilmiy-ommabop, ijtimoiy siyosiy adabiyotlardan foydalanishga yoki kerakli ma'lumotlarni topishlariga doimo xizmat ko'rsatadi. Ko'zi ojiz talabalar uchun mo'ljallangan maxsus kompyuterlarga buyurtma berilgan.

ARM da fakultet o'qituvchi va talabalar bilan hamkorlikda birqancha manaviy va ma'rifiy ommaviy tadbirlar va kitob targ'ibot ishlari amalga oshirib boriladi. Jumladan:

2023 yil **“Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”**ga bag'ishlab barcha bo'limlarda kitob ko'rgazma tashkil qilindi.

2023 yil 2 yanvar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Sobir Mirvaliyev tavalludining **90** yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi. Sobir Mirvaliyevning **“O'zbek adiblari”**, **“O'zbek romani”**, **“Qalblardan qalblarga”**, **“Hayot va kurash poeziyasi”** va birqancha qo'llanmalari chop etilgan.

2023 yil 14 yanvar Vatan himoyachilari kuni hamda Qurolli kuchlarimiz tashkil topganligining 31 yilligi munosabati bilan **“Yurtga qalqon mard o'g'lonlar”** mavzusida kitob ko'rgazma, buklet, devoriy gazeta tayyorlandi. Ko'rgazmaga vatan himoyachilarini madh etuvchi she'rlar va rangli rasmlar qo'yilgan. Ko'rgazmadan turli yo'nalishdagi talabalar foydalandilar. Ko'rgazmaga **58** nusxa adabiyotlar qo'yildi, ulardan **36** nusxa adabiyotdan kitobxonlar foydalandilar.

2023 yil 30 yanvar O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tavalludining **85** yilligi munosabati bilan **“Ozod va obod yurtga baxshida umr”** mavzusida I.A.Karimov asarlaridan tashkil topgan kitob ko'rgazma, buklet, tavsiyaviy ro'yxat, adabiy kecha tashkil qilindi. Ko'rgazmaga **98** nusxa adabiyotlar qo'yilgan, kitobxonlar **78** nusxa adabiyotlardan foydalandilar.

2023 yil 5 fevral O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, tarixchi olim, tarix fanlari doktori, professor Komil Oqilovich Oqilov tavalludining **95** yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi.

2023 yil 9 fevral Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tavalludining **582** yilligi munosabati hamda munosabati 14-fevral Zaxiriddin Muxammad Bobur tavalludining **540** yilligi munosabati bilan **“Bobokalonlarimiz yodi ila yashaymiz”** mazusida kitob ko'rgazma, devoriy gazeta va tadbir tashkil qilindi. Tadbirda Qo'rg'ontepa tumani 28-umumiy o'rta

ta'lim maktabi o'quvchilari va filologiya fakulteti talabalari ishtirok etdilar. Tadbirda shoirlarning hayoti va ijodidan, g'azallaridan namunalar aytildi. ARM xodimlari tomonidan shu mavzuda kitob ko'rgazma, devoriy gazeta va bukletlar tayyorlandi. Kitob ko'rgazmaga shoirlarning eng sara adabiyotlaridan, g'azallaridan va ular haqidagi ma'lumotlardan tashkil topgan **192** nusxa adabiyotlar qo'yildi. Kitobxonlar barcha adabiyotlardan foydalandilar. Tadbir so'nggida tadbir qatnashchilari ARM tomonidan maqtov yorliqlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

2023 yil 10 fevral O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,shoir Husniddin Sharipov tavalludining **90** yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi. Husniddin Sharipov jami yigirmaga yaqin dostonlar muallifi. Ular orasida, ayniqsa, "Sotiboldidan salom", "Quyoshga oshiqman", "Insof diyori", "Tanovor" dostonlari o'zining o'ynoqligi, xalqonaligi, shirador tili va boshqa fazilatlar bilan o'zbek dostonchiligi tarixida alohida o'rin tutadi. Shoirning "Bir savol" she'riy romani o'zbek adabiyotida she'riy romanining eng sara namunalaridan biridir.

2023 yil 21 fevral Xalqaro ona tili kuni (YuNESKO) munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi. Mazkur sana 2001 yildan buyon xalqaro miqyosda keng nishonlanib kelinmoqda. Xalqaro ona tili kunining mazmun- mohiyatidaha bir xalqning o'z milliy tafakkuri, ma'naviyati, ruhiyatining o'zagini tashkil etadigan tilga alohida muhabbatning belgisi o'z aksini topadi. Mazkur kun ona tili bayrami sifatida nishonlanar ekan, bu bayram munosabati bilan har bir insonning o'z Vatani va o'z tiliga bo'lgan muhabbati, unga bo'lgan ehtiromi, qadrlash tuyg'ulari yangilanadi.

2023 yil 22 fevral O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,shoir Azim Suyun tavalludining **75** yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi. Shoirning she'riy turkumlari turk, ingliz, arab, rus, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq va boshqa tillarda chop etilgan. Shu paytgacha o'zbek tilida nashr etilgan to'plamlari: "Mening osmonim" (1978), "Zarb"(1979), "Zamin taqdiri"(1981), "Xayolot"(1984), "Ziyo yo'li"(1986), "Jazo"(1987), "Olis tonglar"(1989), "Kuyganim-suyganim"(1994), "Qora ko'zing sening"(1994), "Sarbadorlar"(1994) lardan iborat.

2023 yil 7-mart kuni Andijon Davlat Universitetining tadbirlar zalida 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan "**Ayol yurt ziynati, oila chirog'idir**" mavzusida bayram tadbiri o'tkazildi. Bayramda universitet rektori, professor Akramjon Yuldashev universitetda faoliyat ko'rsatayotgan barcha xotin-qizlarni tabrikladi va ularni esdalik sovg'alar bilan taqdirladi. Universitetning musiqa ta'lim yo'nalishidagi talabalar ijrosida raqslar, kuy va qo'shiqlar ijro etildi.

Axborot-resurs markazi xodimlari tomonidan shu mavzuda kitob ko'rgazma, devoriy gazeta, buklet va tavsiyaviy ro'yxatlar tashkil qilindi.

2023 yil 10 mart O'zbekiston FA akademigi, turkiyshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Jaloliddin Azimovich Azimov tavalludining 85 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi.

2023 yil 18 mart O'zbekiston FA akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, tarixchi olim, tarix fanlari doktori, professor Zuhridin Rasulovich Nuriddinov tavalludining 105 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi. Tarixchi olim "G'arb mamlakatlari eng yangi tarixining tarixshunosligi" o'quv qo'llanmasining muallifi. Toshkent shahridagi ko'chalardan biri Nuriddinov nomi bilan atalgan.

2023 yil 21-mart Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan "**Navro'z-qadim qvdriyatlar tarovati**" mavzusida bayram kechasi bo'lib o'tdi. Tadbirga fizika-matematika talabalari hamda ARM xodimlari qatnashdilar. Tadbirda ARM xodimlari navro'zning kelib chiqishi tarixi haqida ma'lumotlar berdilar. Tadbirda bayramini madh etuvchi she'rlar, kuy va qo'shiqlar yangradi. ARM direktori Zuxridin Egamberdiyev barchani navro'z bayrami bilan muborakbod etdi. ARM "Ilmiy-uslubiy va axborot-ma'lumotlar bo'limi" xodimlari tomonidan shu mavzuda kitob ko'rgazma, devoriy gazeta, buklet va tavsiyaviy ro'yxatlar tashkil qilindi. Ko'rgazmaga qo'yilgan barcha adabiyotlardan kitobxonlar foydalandilar.

2023 yil 2 aprel Xalqaro bolalar kitobi kuni munosabati bilan 57 nomdagi kitoblardan kitob ko'rgazma tashkil qilindi.

2023 yil 9 aprel Sohibqiron Buyuk sarkarda Amir Temurtavalludiga 687 yil to'ldi. Amir Temur merosi shijoat, mardlik va adolat falsafasi sifatida qadr va e'zoz topdi. Shu bois har yili Sohibqiron tavallud topgan kunni xalqimiz ulug' ajdodimiz xotirasida ehtirom sifatida keng bayram qilinadi. Negaki Amir Temur nafaqat o'z davridagi eng qudratli davlat asoschisi, ilm-fan madaniyat va ma'naviyat homiysi, balki o'z vaqtida jahonda ro'y bergan tarixiy o'zgarishlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan, dunyo obodligiga beqiyos hissa qo'shgan bunyodkor shaxsdir. Amir Temur tavallud topgan kunning 687 yilligi munosabati bilan kitob ko'rgazma, devoriy gazeta va tavsiyaviy ro'yxat, buklet tayyorlandi.

2023 yil 14 aprel Axborot-resurs markazida kitobxonlik haftaligida "**Shye'riyat gulshani**" nomli tadbir o'tkazildi. Tadbirda 1-2-3 DXSh talabalar turar joylarida istiqomat qilayotgan talaba qizlar qatnashdilar. Tadbir 4-bosqichdan iborat bo'lib:

- 1-Shye'riy bayxu-barak.
- 2-Shye'r aytishuv.
- 3-O'zbek yozuvchi va shoirlariga ta'rif berish.
- 4-Musiqiy qism.

Kitob insonni yuksaklarga eltuvchi va ruhiy olamini boyituvchi ilm manbaidir. Shye'riyat olami esa qalb tug'yoni demakdir. 1-TTJ da yashovchi qizlar 3-qism ijrosida she'riyat olami iftixori Muhammad Yusuf she'rlaridan ifodali ijro etdilar. Ushbu tadbirni o'tkazishdan asosiy maqsad yoshlar ongida kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ularni she'riyatga oshno etishdir.

2023 yil 15 aprel Yozuvchi olim , jamoat arbobi Sadridin Ayniy tavalludining 145 yilligi munosabati bilan kitob ko'rgazma , buklet , tavsiyaviy ro'yxat tayyorlandi. Ayniy Buxoroda yangi usuldagi maktablar ochadi, ular uchun o'quv qo'llanmalar, ommani ilm-ma'rifatga chaqiruvchi she'r va hikoyalardan iborat «Yoshlar tarbiyasi» (1909) darsligini tuzadi. «Yosh buxoroliklar» harakatida faol qatnashadi. 1918—21 yillarda tojikcha, o'zbekcha marsh, qo'shiq va she'rlar yaratadi. «Buxoro jallodlari» (1922) povesti, «Buxoro mang'it amirligining tarixi» (1921) asarida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayoti ifodalangan . «Odina», «Qiz bola yoki Xolida» (1924), «Tojik adabiyotidan namunalar» (1926), «Qul bobo yoki ikki ozod» (1928) kabi qissa, hikoya, ocherklari muhim ahamiyatga ega. Ayniy tojik va o'zbek adabiyotlarining ming yillik tarixiy taraqqiyotida yetishib chiqqan 200 dan ortiq shoir, tarixchi, olim, tazkiranavislar hayoti va ijodi haqida ma'lumot beradi.

2023 yil 19 aprel O'zbek xalq yozuvchisi , O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Shuhrat tavalludining 105 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi. Shuhratning “Oltin zanglamas” (1967) asarida ma'rifat sohibi – o'qituvchi degan sharafli kasb ulug'lansa, “Jannat qidirganlar” (1968) romanida falsafiy mulohazalari ifodalangan she'r va to'rtliklardan iborat “Lirika” (1973) to'plami, “Besh kunlik kuyov”, “Qo'sha qaringlar” komediyalari san'atkorning o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan munosib xissasi bo'ldi.

2023 yil 23 aprel Xalqaro kitob va mualliflik huquqlarini himoya qilish kunining 28 yilligi munosabati bilan kitob ko'rgazma tayyorlandi. Ko'rgazmaga turli mavzudagi adabiyotlardan foydalanildi.

2023 yil 26 aprel O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 69 yilligi munosabati bilan devoriy gazeta, buklet, tavsiyaviy ro'yxat, kitob ko'rgazma, tadbir tashkil qilindi. Talabalar ko'rgazmaga qo'yilgan shoirning kitoblaridan foydalandilar. Birinchi kitobi «Tanish teraklar» nomi bilan 1985 yilda chop etiladi. Uning yuragidan to'kilgan navobaxsh she'rlari dilbar qo'shiqlarga aylanib, Muhammad Yusuf nomini tezda elga tanitdi.

2023 yil 3 may kuni yoshlarni kitobxonlikka targ'ib qilish maqsadida “**Kitob-ma'naviyat ko'zgusi**” mavzusida badiiy kecha tashkil qilindi. Tadbirda filologiya fakulteti talabalari hamda she'riyatga qiziquvchi talabalar qatnashdilar. Ushbu

tanlovda iqtidorli talabalar o'z iste'dodlarini namoyish etdilar. Badiiy kecha davomida yozuvchi va shoirlarning asarlari tahlil qilindi.

2023 yil 5 may O'zbekiston FA akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Matyoqub Qo'shjonov tavalludining 105 yilligi munosabati bilan kitob ko'rgazma, tavsiyaviy ma'lumotlar tayyorlandi. Matyoqub Qo'shjonov 40 dan ortiq ilmiy, adabiy-tanqidiy, badia, tarixiy biografik xotira kitoblar muallifidir. Mustaqillik davrida Matyoqub Qo'shjonov Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov ijodi haqida tadqiqot yaratdi. Yangi sharoitda bir qancha asarlarni yangicha talqin va tahlil qildi.

2023 yil 9 may yurtimizda keng miqyosda "Xotira va qadrlash kuni" sifatida katta tantanalar bilan nishonlanib 1941-1945 yillar urush va mehnat frontida tinchlik uchun kurashib halok bo'lgan jasur va matonatli o'g'lonlar xotirasi yod etiladi. Ushbu kun munosabati bilan bo'limda kitob ko'rgazma, buklet, tavsiyaviy ro'yxat va devoriy gazeta tayyorlandi.

2023 yil 9 may Tarixchi, arxeolog, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, O'zbekiston FA akademigi, tarix fanlari doktori, professor Xabib Tursunovich Tursunov tavalludining 110 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi.

2023 yil 10 may O'zbekiston FA akademigi, O'zbekiston xalq shoiri, yozuvchi G'afur G'ulom tavalludining 120 yilligi munosabati bilan kitob ko'rgazma, buklet, tavsiyaviy ro'yxatlar tayyorlandi.

2023 yil 20 may O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Sarvar Olimjonovich Azimov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi. Yozuvchining adabiy faoliyati 1948 yildan boshlangan. U "Hamid Olimjonning ijodi" risolasi, o'zbek adabiyoti darsliklari va o'zbek adabiyotining madaniy merosiga bag'ishlangan tanqidiy maqolalar muallifidir. Yozuvchining "Qonli sarob" (1963), "Daftarning beti" (1965), "Yulduzlarni ko'ryapman" (1966), "Asr droamasi" (1968) p'yesa va senariylarini yozgan.

2023 yil 21 may Kutubxonachilar kuni (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 7-iyun 2019 yil PQ-4354) munosabati bilan Axborot-resurs markazida Ma’naviy intellektual salohiyati, ongu-tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish maqsadida **“Kitob va kutubxonalar-tafakkurning buyuk kashfiyoti”** mavzusida adabiy kecha bo‘lib o‘tdi. Tadbirda ARM xodimlar va talabalar ishtirokida yangi adabiyotlardan tashkil topgan kitob ko‘rgazmasi va kitob targ‘iboti o‘tkazildi. Ko‘rgazmaga mashhur adiblarimizning badiiy, tarixiy asarlari, jahon adabiyoti durdonalari, besteller kitoblar qo‘yildi. Ko‘rgazma yakunida barcha ARM xodimlari bayram dasturxoniga taklif etildi.

2023 yil 1 iyun Butunjahon bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan tavsiyaviy ma’lumot tayyorlandi.

2023 yil 3 iyun O‘zbekiston FA akademiga, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, huquqshunos olim Xadicha Sulaymonova tavalludining 110 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma’lumot tayyorlandi. Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan akademik Xadicha Sulaymonova tavalludining 110 yilligi munosabati bilan universitet talabalari va universitet qoshidagi akademik litsey o‘quvchilari uchun Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiya ta’sis etildi.

2023 yil 15 iyun O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, tarix fanlari doktori, professor Hamid Ziyoyev tavalludining 100 yilligi munosabati bilan kitob ko‘rgazma, tavsiyaviy ro‘yxat va buklet tayyorlandi. Ko‘rgazmaga 56 nomdagi adabiyotlar qo‘yildi. Kitobxonlar 43 nusxa adabiyotlardan foydalandilar.

2023 yil 22 iyun O‘zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi, buyuk Alisher Navoiy davrida Hirotda faoliyat yuritgan tarixchi olim Mirhond Muhammad ibn Xovandshoh tavalludining 590 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma’lumot tayyorlandi.

2023 yil 10 iyul O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori Muhammadali Yunusovich Yunusov tavalludining 105 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma’lumot tayyorlandi. M.Yu.Yunusov o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyondalari ijodini o‘rganish bilan birga 20 asr adabiyotida adabiy an’analar va novatorlik, mumtoz va hozirgi zamon she’riyatida ruboiy, adabiy tanqidning tili singari nazariy masalalarni tadqiq etgan.

2023 yil 12 iyul Ma’rifatparvar, jurnalist, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy tavalludining 145 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ro‘yxatlar, buklet tayyorlandi. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yohud ahloq” asari juda keng ma’noga ega asar hisoblanadi.

2023 yil 20 iyul O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, folklorshunos olim Malik Murodov tavalludining 90 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma’lumot

tayyorlandi. M.Murodovning ilmiy faoliyati Janubiy O‘zbekiston dostonchilik maktablarining epik an‘analari va bugungi tarixiy folklor jarayonining o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan. U 1956 yildan folklor ensiklopediyalarida qatnashib, o‘nlab xalq baxshilarining ijodiy faoliyati, doston kuylash mahoratini tadqiq etgan.

2023 yil 5 avgust Shoir va tarjimon Abdulla Shyer tavalludining 80 yilligi munosabati bilan kitob ko‘rgazma, buklet, tavsiyaviy ma‘lumotlar tayyorlandi. Abdulla Shyerning birinchi she‘rlar to‘plami “Ko‘klam tabasumi” 1973 yili chop etilgan. Shundan keyin u “Alyor” (1977), “Atirgul soyasi” (1979), “Qadimgi kuy” (1978), “Sevgi olmosi” (2010), “Sevilmagan mening sevgilim ”(2010) to‘plamlari nashr etildi. Ayni paytda Abdulla Shyer faylasuf olim sifatida “Ahloqshunoslik”, “Estetika” fanlaridan o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar muallifi hamdir.

2023 yil 1 sentyabr O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan kitob ko‘rgazma, buklet, tavsiyaviy ro‘yxatlar tayyorlandi. Bugungi O‘zbekiston o‘tgan davrda turli sinovlarda toblanib, tajriba orttirib, o‘zining aniq maqsadi va yo‘li, pozitsiyasiga ega bo‘lgan katta davlat sifatida shakllandi. Ta‘lim sohasida ham ulkan yutuq va marralarga erishildi. Go‘zal yurtimizda tinchlik va osoyishtalik bardavom bo‘lsin.

2023 yil 4 sentyabr Buyuk o‘zbek mutafakkir olimi Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad Beruniy tavalludining 1050 yilligi munosabati bilan kitob ko‘rgazma, tavsiyaviy ro‘yxat, buklet, tavsiyaviy ma‘lumotlar tayyorlandi. Buyuk vatandoshimiz Xorazmning aziz farzandi, ulug‘ olim Abu Rayxon Beruniyning hayoti va faoliyati avlodlarga shunday ta‘sir qiladiki, uning asarlarini o‘qigan kitobxon o‘zini asarning ichiga tushib qolgandek xis qiladi va asarlar ichidagi ilm sadaflaridan unumli foydalanishga harakat qiladi.

2023 yil 7 sentyabr O‘zbekiston FA akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filosof olim, falsafa fanlari doktori, professor Ibrohim Mo‘minovich Mo‘minov tavalludining 115 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma‘lumot tayyorlandi. I.I.Mo‘minov qalamiga 200 dan ziyod risolalar hamda falsafa va tarixning turli masalalariga oid maqolalar tegishli. Ilmiy ma‘ruzalari bilan turli mamlakatlarda chiqishlar qilgan: Italiya, Fransiya, Vengriya, Chexoslovakiya, Gresiya, Pokiston, Afg‘oniston va boshqalar. Uning rahbarligi ostida 100 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari va falsafa bo‘yicha 30 ta doktorlik dissertatsiyasi yoqlangan.

2023 yil 10 sentyabr O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘atarbobi Rahmat Fayziy tavalludining 105 yilligi munosabati bilan kitob ko‘rgazma, buklet, tavsiyaviy ma‘lumotlar tayyorlandi. R.Fayziyning “To‘yona”, “Ulg‘ayish”, “Birinchi bahor” hikoya va ocherklar to‘plamlari nashr etilgan. Uning

“Sen yetim emassan” kinoqissasi (1960) asosida kinorejissyor Sh.Abbosov tomonidan sur’atga olingan shu nomdagi filmi katta shuhrat qozongan.

2023 yil 16 sentyabr O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan va texnika arbobi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi muhbir a‘zosi, tarixchi, sharqshunos olim Aleksandr Aleksandrovich Semyonov tavalludining 150 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma‘lumot tayyorlandi. Aleksandr Semyonov A.Navoiy va O‘rta Osiyoning boshqa shoir va mutafakkirlari ijodi bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan. “Samarqanddagi Go‘ri Amirda Said Umar qabr toshidagi bitik”, “Temur va uning avlodlari qabr toshlaridagi bitik”, “Buxoro amiri Shohmurod Ma’sud qabr toshidagi bitik” kabi qator epigrafik yodgorliklarni nashr ettirgan.

2023 yil 22 sentyabr O‘zbek operatori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat arbobi, Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati Mixail Porfiriyeovich Krasnyanskiy tavalludining 115 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma‘lumot tayyorlandi.

2023 yil 24 sentyabr Adabiyotshunos olim, pedagog, filologiya fanlari doktori, professor O‘tkir Shokirov tavalludining 80 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma‘lumot, buklet tayyorlandi. O‘tkir Shokirov 40 yildan beri talim – tarbiya sohasida halol mehnat qilib, yuqori malakali mutahassislar tayyorlash, ularni yuksak manaviyat ruhida tarbiyalashda o‘zining munosib hissasini qo‘shmoqda. U ilmiy – uslubiy, talim – tarbiya va jamoat ishlarini va mehr ruhida tarbiyalash borasida faol mehnat qilib kelyapti.

2023 yil 1 oktyabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan bayram tadbiri, kitob ko‘rgazmasi, buklet, tavsiyaviy ro‘yxatlar, devoriy gazeta tayyorlandi. Ustozlarning beqiyos hissasi borligini umrbod minnatdorlik bilan eslaydi. Bugungi kunda fidoyi ustoz va murabbiylarning ezgu xizmatlari tufayli yoshlarimiz har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetayotgani, fan va texnika, madaniyat va sanat, sport sohalarida qanday katta marralarni qo‘lga kiritayotgani barchamizga cheksiz quvonch baxsh etadi.

2023 yil 15 oktyabr O‘zbekiston FA akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi olim Saidkarim Ziyodullayev tavalludining 110 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma‘lumot tayyorlandi. S. Ziyodullayev mas’uliyatli va zalvorli xizmati davomida ilmiy faoliyat bilan ham doimiy shug‘ullanib kelgan. Iqtisodchi olim iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotiga oid 300 dan ortiq ilmiy ishlar, jumladan, 11 ta monografiya va risolalar hamda ilmiy-ommabop maqolalar muallifi hamdir.

2023 yil 15 oktyabr O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, yozuvchi, tarjimon Mirzakalon Ismoiliy tavalludining 115 yilligi munosabati bilan kitob ko‘rgazma, tavsiyaviy ro‘yxat, buklet tayyorlandi. Mirzakalon Ismoiliyning hammaga ma‘lum va mashxur bo‘lgan romani “Farg‘ona tong otguncha”,

“Qaysar bolaning hayoti ” qissasi, “Qizlar daftariga: O‘n bir oqshom “ badiiy - ahloqiy qissalar yozgan.

2023 yil 21 oktyabr O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan kitob ko‘rgazma, buklet, tavsiyaviy ro‘yxatlar tayyorlandi.

2023 yil 21 oktyabr Olim-falsafachi, jamoat arbobi, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Sulaymon Egamberdiyevich Azimov tavalludining 115 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma‘lumot tayyorlandi.

2023 yil 25 oktyabr O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagog Maqsud Shayxzoda tavalludining 115 yilligi munosabati bilan davra suhbat. Kitob ko‘rgazma, tavsiyaviy ro‘yxat, buklet tayyorlandi. Iste‘dodli dramaturg 1960 yilda yozgan “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida buyuk o‘zbek munajjami va ma‘rifatparvar podshosi obrazini yaratdi. Shayxzoda Pushkinning “Mis chavandozi”, Lermontovning “Kavkaz asiri”, Mayakovskiyning “Juda soz” dostonlari va ko‘plab she‘rlarini, Shyeksperning “Hamlet”, “Romeo va Juletta” tragediyalari va sonatalarini, Nozim Hikmatning she‘rlarini ozarbayjon shoirlari asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

2023 yil 25 oktyabr O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, adabiyotshunos olim Pirimqul Qodirov tavalludining 95 yilligi munosabati bilan savol javob kechasi, kitob ko‘rgazmasi, buklet,tavsiyaviy ro‘yxatlar tayyorlandi. P.Qodirovning dastlabki hikoyasi “Studentlar” (1951), “Qadrim” (1961), “Erk” (1968), “Akramning sarguzashtlari” (1974), “Yayra institutga kirmoqchi” (1979),shuningdek, ma‘naviy-ahloqiy masalalarga bag‘ishlangan “Baxillar va botirlar” qissalari nashr etilgan. “Uch ildiz” (1958), “Qor ko‘zlar” (1966), “Olmos kamar” (1976), “Yulduzli tunlar” (1979, ushbu asarning davomi “Avlodlar dovoni”, 1989), “Ona lochin nodosi” (2000) kabi romanlar muallifidir.

2023 yil 7 noyabr Mashhur sayyoh, elchi tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy tavalludining 610 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma‘lumot tayyorlandi. A.Samarqandiy-arab tili grammatikasiga bag‘ishlangan “Risolai Azudiya”ga sharh yozadi. A.Samarqandiy Movarounnahr va O‘rta Sharq mamlakatlarining 14-15 asrlardagi tarixiga oil boy ma‘lumotlarni o‘zida jam qilgan “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn ” nomli tarixiy asari bilan mashhur.

2023 yil 12 noyabr O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, huquqshunos olim Orif Hakimovich Rasulov tavalludining 115 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma‘lumot tayyorlandi.

2023 yil 17 noyabr Xalqaro talabalar kuni. Talabalik umrning beg‘ubor fasli, katta hayot sari qadam qo‘yish ostonasi, ulkan orzu umidlar davridir. Bugungi kunda davrning o‘zi Vatan ravnaqi va taraqqiyoti uchun asosiy tayanch bo‘lgan yoshlar

jamiyatning muhim qatlami ekanligini ko'rsatib turibdi. Yuqori salohiyatli, ziyoli va bilimli yoshlar har jabhada biz uchun kuch-qudrat manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu borada muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan yoshlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning orzu-intilishlari, ilg'or g'oya va tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, azmu shijoatli, iqtidorli yigit-qizlarning o'z sohasida, jamoat ishlarida erishayotgan yutuqlarini munosib rag'batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bo'limda ushbu kun munosabati bilan buklet, tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi.

2023 yil 18 noyabr O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i tasdiqlangan kun munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi. Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 18 noyabrdagi 407 - sonli "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida" gi Qonuni bilan tasdiqlangan hamda u O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzi sanaladi. Bayrog'imiz ham o'zida butun xalqimiz orzu-istaklari, g'ayrati va shijoatini, xalqimizga xos mehmondo'stlik, bag'rikenglikni o'zida mujassam etgan. Milliy bayrog'imizning hilpirab turishi, turli bayramlarda, mamlakatimiz vakillari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi tadbirlarda, nufuzli sport musobaqalarida Vatanimizning sha'ni, xalqimizning g'ururini yorqin aks ettirishi barchamizga iftixor baxsh etadi.

2023 yil 3 dekabr O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir, jurnalist Sulton Akbariy tavalludining 100 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi. Sulton Akbariyning dastlabki she'riy to'plami 1950 yilda chop etilgan. Shundan keyin uning 20 ga yaqin she'riy to'plamlari, dostonlari chop etildi. Ular orasida "Imonim e'tiqodim", "Yaralangan qo'shiqlar", "Suluv suluv emas, suygan suluv", "Shukrona", "Mehrigiyo" kabi she'riy majmualari alohida ajralib turadi. Sulton Akbariy tarjimon sifatida ham samarali ijod qilgan. O'zbek tiliga o'g'irgan asari orasida qirg'iz eposi "Manas" dan qilingan tarjimalari alohida o'rin egallaydi.

2023 yil 8 dekabr O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 31 yilligi munosabati bilan ADU Axborot-resurs markazining tadbirlar zalida **"Konstitutsiya - Yangi O'zbekiston taraqqiyotining poydevori"** mavzusida tadbir tashkil qilindi. Tadbirda Filologiya fakulteti va Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya yo'nalishi talabalari qatnashdilar. Tadbirga 68 nomdagi adabiyotlardan kitob ko'rgazmasi tashkil qilindi, hamda buklet, tavsiyaviy ro'yxat, devoriy gazetalar tayyorlandi.

Tadbirga kelganlar ko'rgazmadagi adabiyotlardan 42 nus'hadagi adabiyotlardan foydalandilar.

2023 9 dekabr O'zbekiston FA akademigi, faylasuf olim Mubindjona Baratovich Baratov tavalludining 90 yilligi munosabati bilan tavsiyaviy ma'lumot tayyorlandi.

2023 10 dekabr O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan tavsiyaviy ma’lumot tayyorlandi.

2023 yil 18 dekabr O‘zbekiston FA akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, tilshunos olim Azim Xojiyev tavalludining 90 yilligi munosabati bilan buklet, tavsiyaviy ro‘yxat, tavsiyaviy ma’lumot va kitob ko‘rgazmasi tashkil qilindi. Ko‘rgazmaga 47 nomdagi adabiyotlar qo‘yilib, shundan 24 tasidan talabalar foydalandilar.

2023 yil 24 dekabr O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, O‘zbekiston xalq shoiri, dramaturg Turob To‘la tavalludining 105 yilligi munosabati bilan kitob ko‘rgazmasi, buklet, tavsiyaviy ro‘yxat va tavsiyaviy ma’lumotlar tayyorlandi. Turob To‘la 15-16 yoshlaridan ijodiy faoliyat bilan shug‘ullana boshlagan. U she’r va dostonlar, opera va balet uchun librettolar, turli nasriy asarlar yozish bilan birga o‘zbek qo‘shiqchilik san’ati rivojiga ham salmoqli hissa qo‘shdi. Uning “Hayo bilan”, “Sumbula”, “Ko‘chalar”, “Do‘ppi tikdim”, “Sartarosh qo‘shig‘i” kabi she’rlari qo‘shiq qilib kuylangan. Ko‘rgazmaga 34 nomda adabiyotlar qo‘yildi.

ADU ARM direktori:



Z.Egamberdiyev